O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI

THE CENTRAL BANK OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**BANK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH HUQUQINI BERUVCHI**

**89 – raqamli**

# LITSENZIYA

2024-yil "6" fevral

Toshkent shahri

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil "6" fevraldagi 6/4-sonli qaroriga muvofiq

**"SMART BANK" aksiyadorlik jamiyati**

**( 100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov koʻchasi, 2A-uy )**

quyidagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega:

1. Pul mablagʻlarini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;
2. Toʻlovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;
3. Jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;
4. Kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti bilan oʻz nomidan oʻzining mablagʻlari hamda jalb etilgan mablagʻlar hisobidan berish;
5. Chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;
6. Jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma boʻyicha mol-mulkni ishonchli boshqarish;
7. Inkassatsiya va kassa xizmatlarini koʻrsatish;
8. Uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;
9. Uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring);
10. Qimmatli qogʻozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qogʻozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;
11. Affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy boʻlmagan) hisobvaraqlarini yuritish;
12. Qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;
13. Hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
14. Hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;
15. Lizing berish;
16. Qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;
17. Moliyaviy operatsiyalar bilan bogʻliq maslahat xizmatlari koʻrsatish;
18. Aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;
19. Elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va toʻlash;
20. Bank kartalarini berish va toʻlovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat koʻrsatish.

**Ushbu litsenziya cheklanmagan muddatga berildi.**

Yuqorida keltirilgan operatsiyalar Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan oʻrnatilgan tartib va iqtisodiy me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu litsenziya shartlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritishi hamda Oʻzbekiston Respublikasi "Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida"gi va "Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida"gi qonunlarida koʻzda tutilgan hollarda uni bekor qilishi mumkin.

Bank 2022-yil "24" dekabrda 89 – raqam ostida Banklarni roʻyxatga olish davlat reyestriga kiritildi(gan).

*Oʻzbekiston Respublikasi*
*Markaziy bankining vakolatli shaxsi*

***N. Saydullayev***